UO‘K 94 (575.1)

“MILLIY ISTIQLOL” TASHKILOTI VA UNING VILOYATLARDAGI BO‘LIMLARI FAOLIYATI

S.A. Xoshimov

Maqolada jadid ma’rifatparvarlarining “Milliy ittihod” tashkiloti shakllanishi, tashkilotning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi, faoliyati tarixi o‘rganilgan. Shuningdek, mazkur tashkilotning viloyatlardagi bo‘limlari, ularning a’zolari faoliyati, tashkilot a’zolarining sovet hokimiyati jazolovchi idoralari tomonidan ta’qib qilinib, pravordida fosh etilishi hamda qatag‘on qilinishi masalalari birlamchi manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *jadid, ma’rifatparvar, ziyolilar, siyosat, mafkura, “Milliy ittihod”, “Milliy istiqlol”, tashkilotlar, muxolifat.*

В статье изучено формирование организации джадидов-просветителей “Миллий иттиҳод” («Национальный союз»), цели организации и история ее деятельности. Также на основе первоисточников освещены областные отделения данной организации, деятельность их членов, преследования, разоблачения и репрессии членов организации карательными органами советской власти.

Ключевые слова: *джадид, просветитель, интеллигенты, политика, идеология, «Миллий иттиход», «Миллий истиклол», организации, разногласия.*

Ma’lumki, jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakatdir. Turkistonda ham dastlab ma’rifatparvarlik harakati sifatida maydonga kelgan jadidchilik Rossiyada ro‘y bergan 1917-yil fevral voqealaridan so‘ng kuchli siyosiy harakatga aylandi.

Birinchi jahon urushidan keyin parlamentar monarxiya uchun kurashgan jadidlar fevral voqealaridan so‘ng ancha keng qamrovli siyosiy talablarni ilgari surdilar. Bu talablar, jumladan, mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish, o‘lkani boshqarish yuzasidan islohotlar o‘tkazish, o‘lka aholisi sonidan kelib chiqib Davlat Dumasidan o‘rin ajratish, milliy matbuot erkinligini ta’minlash kabilardan iborat edi. Ayni vaqtda milliy-siyosiy partiyalar va tashkilotlar, masalan, “Sho‘roi Islomiya”, “Ittifoq” kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu davrda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining barcha qatlam vakillarini o‘z ortidan ergashtira oladigan kuchga aylangan edi.

1917-fevral-oktyabr oylari oralig‘ida yuz bergan voqealar tufayli Turkistonda Rossiyadagi kabi ikki hokimiyatchilik emas, balki uch hokimiyatchilik vujudga keldi. Birinchisi – Rossiya Muvaqqat hukumatining vaqtli Turkiston komiteti, ikkinchisi – Turkistondagi ishchi va askar deputatlari sovetlari, uchinchisi – jadidlarning “Sho‘roi Islomiya” tashkiloti, ya’ni musulmonlar sovetlari va uning joylardagi shu’balari, Toshkentda Turkiston o‘lka musulmonlari soveti (Kraymussovet), ya’ni Milliy Markaz [1. B. 17–18]. Bu davrda jadidlar va ulamolar orasidagi ziddiyat, g‘oyaviy kurash mintaqadagi boshqa siyosiy kuch – bolsheviklar va so‘l eserlar partiyalari vakillariga qo‘l kelgan.

1917-yilning noyabriga kelib, Turkistonda hokimiyat masalasida ikki muqobil yo‘nalish yuzaga keldi. Birinchisi – milliy taraqqiyparvar ziyolilarning (jadidlar) o‘lkadagi yerlik bo‘lmagan, boshqa millatlar vakillari ishtirokida demokratik ruhdagi Turkiston muxtoriyatini tashkil etishga bo‘lgan intilishlari, ikkinchisi yo‘l esa bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan zo‘rlik bilan hokimiyatni egallab, unga mutlaq hukmron bo‘lish edi. Yana hokimiyat masalasida bir-biriga qarama-qarshi muxolif qarashlar maydonga kelgandi. Bunda ikkinchi yo‘nalish, ya’ni bolsheviklar ilgari surgan zo‘rlik yo‘li ustun keldi.

1917-yil oktyabr voqealaridan so‘ng Rossiyada bo‘lganidek, Turkistonda ham hokimiyatni bolsheviklar egallashi jadidlarning o‘z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular markazi Qo‘qonda bo‘lgan, Turkiston muxtoriyati deb atalgan mustaqil muxtor respublikani e’lon qildilar. 72 kun yashagan bu muxtor respublika 1918-yil fevralda sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etildi. Natijada muxolifatda bo‘lgan kuchlar, ya’ni milliy taraqqiyparvar ziyolilar (jadidlar) kurashning yangi usullariga o‘tishga majbur bo‘ldi. Endi Turkiston ziyolilari uchun qanday turdagi davlat qurish emas, balki qanday qilib bo‘lsa ham, mustamlakachilikning yangi ko‘rinishidan qutulib qolish muhimroq edi.

Shunday vaziyatda davlatning shakli qanday bo‘lishidan ko‘ra, ozod bo‘lib qolish masalasi hal qiluvchi ahamiyatga ega edi. Turkiston ziyolilari o‘rnatilgan yangi tuzum sharoitida siyosiy va ijtimoiy qarashlariga ko‘ra turli yo‘nalishga bo‘lingan holda faoliyat yuritishlari tabiiy bir hol edi. Mazkur sharoitda jadidlar faoliyatida uch yo‘nalish paydo bo‘ldi.

1-yo‘nalish: o‘z maqsad-intilishlarini sovet davlati idoralarida amalga oshirmoqchi bo‘lgan, sovet davlatining yolg‘on va’dalariga ishongan ziyolilar: Fitrat, Fayzullo Xo‘jayev, Polvonniyoz Yusupov, Hamza Hakimzoda, Ubaydulloxo‘ja Asadullaxo‘jayev, So‘fizoda, I.Davron va boshqalar.

2-yo‘nalish: sovet davlatining siyosatidan norozi bo‘lib, o‘z yurtini tashlab xorijga chiqib ketgan ziyolilar: Mustafo Cho‘qayev, Alixonto‘ra Sog‘uniy, Ahmad Zaki Validiy va boshqalar.

3-yo‘nalish: sovet davlatini mustamlakachi davlat sifatida taniganlar. Yangi tuzumga ishonmagan va unga qarshi qurolli kurashga boshchilik qilgan ziyolilar: Kamolxon qozi, Sayyid Nosirxon to‘ra Kamolxon to‘ra, Eshonxo‘ja Xoniy va istiqlolchilik harakatining boshqa barcha yetakchilari. Ular ham asli ziyolilar edi.

Bolsheviklar o‘rnatgan sovet hokimiyatiga qarshi bo‘lgan fidoyi ziyolilar kurashning yangi yo‘liga o‘tishini yuzaga kelayotgan tarixiy vaziyatning o‘zi taqozo etardi. Ana shu ziyolilarning bir toifasi sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash qatnashchilariga rahnamolik qildi, yana bir guruhi millatni yagona maqsad yo‘lida birlashtirib, mustamlakachi sovet hokimiyatiga qarshi ongli siyosiy kurashga boshlab borishga qodir siyosiy jamiyat va tashkilotlar tuzishga intildilar. Bu amaldagi bolsheviklar partiyasiga qarshi muxolifatdagi tashkilot hamda jamiyatlarni maydonga keltirdi.

Turkistonda faoliyat yuritgan milliy tashkilot va siyosiy jamiyatlardan, jumladan, “Sho‘roi Islomiya” (1917-yil 14-mart – 1918-yil sentyabr), “Sho‘roi Ulamo” (1917-yil iyunda “Sho‘roi Islomiya”dan ajralib chiqqan – 1918-yil sentyabrda bolsheviklar tomonidan tugatilgan) kabi tashkilotlar, “Turk adami markaziyat firqasi” (“Turkiston federalistlar partiyasi” 1917-yil iyulida “Sho‘roi Islomiya”dan ajralib chiqqan), “Ittifoqi muslimin” (1917-yil sentyabrda tashkil etilgan) singari siyosiy jamiyatlar bo‘lgan [1. B. 28–38].

Milliy ziyolilar tomonidan yuqoridagi tashkilot va siyosiy jamiyatlarning tuzilishi o‘z oldiga Turkiston mahalliy aholisi manfaatlarini himoya qilish maqsadini qo‘ygan jamiyat va ittifoqlardagi tarqoq milliy siyosiy kuchlarni birlashtirish borasida dastlabki qadamlar bo‘ldi.

“Sho‘roi Islomiya” hokimiyatning yangi shakli bo‘lib, milliy hokimiyat va istiqlol uchun tinch yo‘l bilan demokratik kurash olib bordi. “Turkiston muxtoriyati” hukumatini tashkil etdi. Ammo bu hukumat bolsheviklar tomonidan ag‘darildi, “Sho‘roi Islomiya” millatchi va aksilinqilobiy tashkilot sifatida qoralandi va unga qarshi kurash olib borildi. “Sho‘roi Islomiya”ning Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi rahbarlari sovetlar hukumatining doimiy ta’qibi va tazyiqi ostida bo‘ldilar [2. B. 211]. Natijada 1918-yil may oyida bolsheviklar tomonidan “Sho‘roi Ulamo” bilan birga bu tashkilot ham tugatildi.

1921-yil aprel oyida Turkiston ChK xodimlari sovet hokimiyatiga qarshi kurashish maqsadida tashkil etilgan milliy ziyolilar va ulamolar vakillaridan iborat “Milliy birlik qo‘mitasi” tashkiloti faoliyatini fosh etdilar. Bu tashkilot 1920-yilning noyabr oyida Toshkentda tashkil etilgan edi. Tashkilot Farg‘ona vodiysida harakat qilayotgan Shermuhammadbek boshliq qurolli qarshilik harakati qatnashchilariga ko‘mak berishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan edi [4. B. 4–5]. Angliya va Yaponiya hukumatlaridan qurol-yarog‘, pul va kerakli mablag‘ undirish uchun ushbu davlatlarning G‘uljadagi (Xitoy) vakillariga Turkistondagi siyosiy vaziyatni bayon qilib xat yo‘llashgan [4. B. 5–7]. Tashkilot a’zolaridan Sadriddinxo‘ja Sharifxo‘jayev va Abdullajon Ziyomuhammedovlar oliy jazo – otuvga, Karimov Garif Alminovich, Qurbonov Yusufbek, Umarov Muhammadiyor, Niyozbekov Rustambeklar turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etilgan [4. B. 8–10].

Muxolifatdagi yashirin tashkilotlardan yana biri “Turkiston milliy birligi” bo‘lgan. Bu tashkilot Buxoroda “Buxoro istiqloli” va Toshkentdagi “Milliy ittihod” tashkilotlari faoliyatlarini birlashtiruvchi “Markazlar markazi” nomi bilan tashkil topdi. Uning tashkilotchilari Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on, Munavvarqori, Fayzulla Xo‘jayev, Hoshim Shayx Qushbegiyev, Abduqodir Muhitdinov, Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jayev va boshqalar bo‘lgan [5. B. 175]. Ammo bu tashkilot ham uzoq faoliyat ko‘rsata olmadi. Tashkilotning har bir a’zosi VChKning doimiy kuzatuvida bo‘lgan. Tinimsiz ta’qib-nazorat natijasida tashkilot 1923-yil o‘z faoliyatini to‘xtatadi. Uning ko‘plab yetakchilari Turkistonni tark etib, xorijga chiqib ketdi.

Turkiston o‘lkasi xalqlarining siyosiy uyg‘onishida muhim rol o‘ynagan jadidlarning tashkilotlaridan biri “Ittihod va taraqqiy” (“Taraqqiyparvarlar uyushmasi”) dir. “Ittihod va taraqqiy” dastlab 1914-yil Andijonda tashkil etilgan [6. B. 227]. Toshkentda esa 1917-yil avgustda tashkil topgan. Shu davrdan boshlab respublika shu’basi Toshkentda bo‘lgan.

“Ittihod va taraqqiy” asosan siyosiy maqsadlar uchun kurashgan. U chor hukumatiga muxolifatda bo‘lib, uning siyosatini tanqid qilgan, yoshlarni siyosiy faollashtirish, turk muhojirlariga yordam be-

rish, maktab ishlarini isloh qilish kabi talablarni ilgari surgan. Munavvarqorining ko‘rsatishicha, dastlabki paytlarda jamiyat a’zolarining “soni 50 ga yetmagan bo‘lsa-da, ularning xalq orasida obro‘si juda yuqori darajada” bo‘lgan [7. B. 438]. Sovetlar davrida ham hukumat bu taraqqiyparvar tashkilot va uning rahbarlaridan xavfsiragan. Shu bois favqulodda komissiya (ChK) bu jamiyat a’zolarining har bir qadamini kuzatuvga olgan.

Maxfiy organlar jadidlar va ularning tashkiloti “Ittihod va taraqqiy”ga ta’qib-tazyiqni kuchaytirdilar. Ana shunday sharoitda jadidlar o‘zlarining kurash usullari va shakllarini o‘zgartirib turdilar. 1919 yil yanvarda “Ittihod va taraqqiy” faoliyati to‘xtatilmagan holda, Munavvarqori Abdurashidxonov tashabbusi bilan “Birlik” uyushmasi tashkil etildi. “Ittihod va taraqqiy” o‘z nomini o‘zgartirib, “Milliy ittihod” (yoki “Ittihodi milliy”) deb atala boshlandi.

Kurash yo‘lini o‘zgartirishni yuzaga kelayotgan tarixiy vaziyat taqozo etardi. Dastlab jadidlar sovetlar hokimiyati Turkistonda uzoq yashab qola olmasligiga ishonib, binobarin, unga qarshi qurolli kurash taktikasini yoqlab chiqqan bo‘lsalar, yangicha sharoitda strategik dasturiy maqsaddan og‘ishmay davr bilan hisoblashish, sovetlar hukumatiga yaqinlashish, ular bilan hamkorlik qilish yo‘liga o‘tdilar [7. B. 439].

“Birlik” uyushmasi o‘z navbatida, kommunistik partiya safiga yoshlarni kirishga da’vat etish uchun tashkil etilgan edi. “Birlashishdan maqsad yoshlarni bolshevoylar firqasiga jalb qilish va ularni har xil kutilmagan voqealarga tayyorlashdan iborat edi” [3. B. 18], deb yozadi Munavvarqori Abdurashidxonov. “Birlik” faoliyatini ham ChK xodimlari doimiy nazoratda ushlab turgan. 1919-yil boshlaridan e’tiboran tashkilot a’zolari kommunistik partiya safiga kira boshladi. Bu musulmon mehnatkashlarining ham bolsheviklar partiyasiga kirishlari uchun katta turtki bo‘ldi. Oqibatda hukmron partiya tarkibida musulmonlarning soni ortib bordi. “Birlik” jamiyati 2–3 yil faoliyat ko‘rsatdi. Yoshlarning ko‘pchiligi firqaga (kommunistik partiyaga) kirganidan keyin u o‘z-o‘zidan tugab ketdi [3. B. 25].

“Milliy istiqlol”ning Buxoro viloyatidagi bo‘limi faoliyatiga jadid taraqqiyparvarlaridan Mukomil Burxonov, Abdurahim Yusufzodalar rahbarlik qilgan edilar. Buxorolik “Milliy istiqlol” tashkiloti faollaridan Alimov Muinjon, Ota Xo‘jayev, Saidjonov Muso, Sattor Xo‘jayev, Saidjonov Muxtorjon, Naimjon Yoqubzoda, Burxonov Mukomil, Muxammar Burxonov, Masxar Burxonov, Rahmatulla Muzaffarov, Abdirashid Mukamilov, Xo‘jayev Hamro, Xo‘jayev Porso, Abdullayev Abdulla, Burxonov Misbax, Abdusaidov Ahmadjon hamda Abdurahim Yusufzodalar, ya’ni tashkilotning o‘n yetti nafar faollari, jadid taraqqiyparvarlari NKVD uchligining 1937-yil 14-oktyabrdagi 24-bayonnomasi, 615-sonli ishida tayinlangan hukmga ko‘ra ularning butun mol-mulki musodara qilinib, otuvga hukm qilingan edi [8. B. 146].

Andijonda “Milliy ittihod” tashkilotining faol a’zolari kimlar edi, degan savolga 1935-yil 14- sentyabrda Akbar O‘razaliyevning tergov jarayonida bergan ko‘rsatmalaridan javob olish mumkin. Akbar O‘razaliyevning tergov chog‘ida bergan ma’lumotlariga ko‘ra, “Shamsi Najmiyev, Burxon Mashrabiy, Nabi Rasulzoda, Ubaydulla hoji, Abdulla hoji, Abdulhay Ayubiy, Vali Maqsudiy, Ziyoyev Sayfi, Sayfi Kamol, Karimxo‘jayeva Maktubaxon, Abdumutalib Qoramandiyev, Qorizoda Mahmud, Isoqqori Karimov, Olimov Muxtorjon, Ibrohimov Xazabjon, Usmonjon Sarkorov, Olimjon Sarkorov, Ziyovuddin Maxsim, Mavlon Qoziyevlar “Milliy istiqlol” tashkilotning Andijon viloyatidagi a’zolari bo‘lgan [6. B. 237–238].

Andijon viloyatidagi “Milliy istiqlol” guruhining faol a’zolaridan yana biri Zokir Nusratiy edi. Zokir Nusratiy 1897-yilda Andijon shahar Kengash mahallasida tug‘ilgan, kasbi – hisobchi bo‘lgan. “Milliy istiqlol” tashkiloti ko‘rsatmasiga muvofiq, Farg‘ona vodiysidagi qurolli qarshilik harakatining yetakchilaridan bo‘lmish Parpi va Mahkam qo‘rboshilarga xayrixoh bo‘lib, hamkorlik qilganlikda ayblangan, 1927-yilda “aksilinqilobiy” faoliyati uchun 3 yilga OGPU kollegiyasi qaroriga ko‘ra ozodlikdan mahrum etilgan [9].

Bu davrda Baliqchi tumanida ham “Milliy istiqlol” tashkilotning shu’basi faoliyatda bo‘lgan. Uni jadidchilik harakatining namoyandalaridan Qutb Najmi boshqargan. Bu haqda “Baliqchida milliy burjuaziya to‘dasi”ning aksilinqilobiy jarayonlardagi ishtiroki yuzasidan 1937-yil noyabr oyida Baliqchi tumanida harakat qatnashchilari ustidan o‘tkazilgan sud jarayoni bo‘yicha “Pravda Vostoka” gazetasi maxsus korrespondentining telegraf orqali axborotidan ham anglab olish mumkin. Unda qayd etilishicha, A.Ikromov, F.Xo‘jayevlarning aksilinqilobiy topshiriqlarini Baliqchi tumanida doimiy bajarib kelgan qurollanganlar guruhi ustidan sud hukmi e’lon qilinadi.

Ayblanuvchilar Sultonov, Aminov, Xudoyberdiyevlarning sudda bergan ko‘rsatmasiga ko‘ra, Baliqchi tumanida faoliyat ko‘rsatgan “Milliy istiqlol” tashkilotining rahbari Qutb Najmi edi. Qutb Najmi uyida Qo‘qondagi “Sho‘roi Islom” aksilinqilobiy hukumatining muhri va boshqa hujjatlari saqlangani aniqlangan. 1937-yilda A.Ikromov, F.Xo‘jayevlarning aksilinqilobiy harakatlarini qo‘llab-quvvatlab turganlikda hamda “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi sifatida, xalq dushmani deya Kayipov (sobiq Baliqchi tuman partiya komitetining sekretari) boshliq bir guruh kishilar ayblanadilar. “Uchlik” qaroriga ko‘ra M.Sultonov, I.Xudoyberdiyev, Eshon Mutullayev, Yu.Ami-

nov, K.Hamidov, A.Chavarovlar oliy jazo – otuvga hukm qilinadi. M.Mirsaidovga 20 yil, M.Turdiqulovga 15 yil, I.Qirg‘izboyev va M.Shamirsaidovlarga 10 yil, D.Azimovga 5 yil, A.Mirzalimovga esa 3 yil qamoq jazosi tayinlandi [8. B. 147].

Milliy siyosiy muxolifat yashirin faoliyat yuritishida o‘zbek xalqi mentalitetiga xos bo‘lgan “gap” (navbatma-navbat mehmondorchilik uyushtirish)larda to‘planish orqali biror maqsadli ishni amalga oshirmoqchi bo‘lgan. Toshkentning Ko‘kcha dahasida o‘qituvchilar, savdogarlar, madrasalarda tahsil olgan kishilardan iborat “Gap” guruhi jadid ma’rifatparvarlari Rustambek Yusupov, Sa’dullaqori Shomuhammedov va Shahobiddin Ahmedovlar tashabbusi bilan tashkil etilgan bo‘lib, u 1924-yildan e’tiboran mustaqil O‘zbekiston davlatini tashkil etish uchun kurashgan [10. B. 1–7].

Said G‘ofuriy rahbari bo‘lgan yashirin guruhni ham OGPU o‘z nazoratidan qochirmagan. 1929-yil guruh faoliyatiga chek qo‘yilgan, uning a’zolari qamoqqa olinib, 1930-yil yanvarda OGPU ning qarori bilan Said G‘ofuriy, Tangriqul hoji Maqsudov, Ilhom Islomovlar 5 yilga, Sa’dullaqori Shomuhammedov, Sadriddan Ahmedov, Shukur G‘ofuriy, Jamil Hidoyatov va Po‘lat Hojiboyevlar 3 yilga qamoq jazosiga hukm etiladi [10. B. 10–11].

1924–1925-yillarda O‘rta Osiyo respublikalarida amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanishdan so‘ng bolsheviklar partiyasining yakka diktatorlik siyosatiga qarshi yerli xalq vakillarining milliy siyosiy muxolifat harakati to‘xtab qolmadi. Jadidchilik harakatining rahnamolaridan biri Munavvarqori Abdurashidxonov tashabbusi bilan 1925-yil “Milliy ittihod” tashkiloti “Milliy istiqlol” nomi ostida qaytadan tashkillandi. Endi O‘zbekiston ziyolilari o‘z oldilariga mustaqil O‘zbekiston uchun kurashishni maqsad qilib qo‘ygan edilar. “Milliy ittihod”ning faoliyat yo‘li, kurash usullari “Milliy istiqlol” tashkiloti faoliyatida davom etdi. Tashkilotga Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarlik qildi. Laziz Azizzoda, Salimxon Tillaxonov va G‘ofurjon Musaxonovlar “Milliy istiqlol”ning markaziy boshqaruvida faoliyat olib bordilar [10. B. 11–15]. “Milliy istiqlol” tashkilotining Namangan, Andijon, Samarqand bo‘limlari ham bo‘lgan. Tashkilot o‘ta maxfiylikda faoliyat ko‘rsatdi.

Zaynutdinqori Nasritdinov “Milliy ittihod” tashkilotining Namangan viloyat bo‘limini boshqargan edi. Tashkilotning bu yerdagi Akrom Ismatullayev, R.B.Rizayev, M.G.Dadamuhammedov, F.Ismatullayev, I.K.Otaboyev, Jamol Sadiyev, Nasimjon Mahmudov, F.Usmonov, A.Musaboyev, A.X.G‘ofurov, A.Zaynutdinov kabi faollari xalq ommasi orasida faol targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borib, bolsheviklar partiyasining ruslashtirish siyosatidan ko‘zlagan maqsadini ommaga yetkazishda faollik ko‘rsatdilar [11. B. 26].

“Milliy istiqlol”ning Kosonsoy bo‘limi ham mavjud edi. Bo‘lim faoliyatiga Abdullabek Musabekov rahbarlik qilgan. Kosonsoy bo‘limida Abdulahad Ma’rufjonov, Hamroqul Kamolov, Shoqobul Kamolov, Ismat Obiddinov, Ergash Nurmuhummedovlar ham a’zo sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Tashkilot a’zolari Farg‘ona vodiysidagi qurolli qarshilik harakati qatnashchilarini qo‘llab-quvvatlab, ularga ham ma’nan, ham amaliy yordam ko‘rsatganlar [8. B. 148].

“Milliy istiqlol”ning Andijondagi bo‘limini Hasanxon Niyoziy boshqargan edi. Andijondagi tashkilot a’zolari ham boshqa hududlardagi kabi maxfiy ravishda faoliyat ko‘rsatgan [12. B. 67–78]. “Milliy ittihod”ga mansublikda ayblanib sovet jazo organlari tomonidan qatag‘on qilingan yana bir andijonlik Jumabek hoji Parpiboyevdir. U 1893-yil Andijonda tug‘ilgan. 1918-yildan VKP(b) a’zosi bo‘lgan. J.Parpiboyev Turkiston muxtoriyatini qo‘llab-quvvatlagan. Bozorqo‘rg‘on, Qo‘qonqishloq, Novqot qishloqlariga borib, ommaviy yig‘inlar uyushtirib, milliy muxtoriyatni qo‘llab-quvvatlovchi rezolyutsiyalar qabul qilinishiga erishgan. 1920-yilda “Milliy ittihod” tashkilotiga a’zo bo‘lgan. 1935-yili Urganch shahrida antipartiyaviy faoliyati uchun partiyadan o‘chirilgan [5. B. 292–294]. “Milliy istiqlol” tashkilotining Farg‘onadagi bo‘limi a’zolari “Ko‘r kalamush”lar tamg‘asi ostida qamoqqa olingan [12. B. 85–87].

1927–1929-yillarda “Milliy istiqlol” fidoyilari – Murodxo‘ja Allaxo‘jayev, Abdulahad Ma’rufjonov, Shoqobil Kamolov, Hamroqul Kamolov, Ergash Nurmuhammedov, A.Burxonov, A.Abdusaidov, A.Muhitdinov, M.Saidjonov, Q.Qoriyev, M.Hakimov, O.Nosirov, O.Mahmudov, S.Ayniy, A.Shomansurovlar Samarqand shahrida faoliyat yuritgan [12. B. 121–123].

1929-yilda “Milliy istiqlol” tashkiloti faoliyati ham OGPU xodimlari tomonidan “aksilinqilobiy” tashkilot sifatida fosh etilgan edi. Jami bo‘lib 87 kishi qo‘lga olinadi, Toshkent va Moskva qamoqxonalarida tergov qilinib, sovet hokimiyatining jazolovchi idoralari 1931-yil 25-aprelda tashkilot a’zolari ustidan o‘z hukmini o‘qidi. Sud kollegiyasi “Milliy istiqlol” tashkiloti ishi yuzasidan ayblanuvchilardan 21 kishiga otuv (shundan 6 nafariga nisbatan otuv hukmi 10 yillik qamoq bilan almashtirilgan), 26 kishiga 10 yillik, 20 kishiga 5 yillik, 15 kishiga 3 yillik muddat bilan konslagerga yuborish, 4 kishiga SSSRning 12 ta belgilangan shaharlarida yashashdan mahrum etilgan holda qamoqdan ozod qilinishi haqida hukm chiqardi, birgina siyosiy boshqarma ayg‘oqchisi Muhammedov Madxuddin ozod qilingan edi [8. B. 127–135]. Oliy jazo – otuv hukmi Toshkent va Moskvada ijro etildi.

Birlashgan bosh siyosiy boshqarma hay'atining A.Xo‘jaoxunov, U.To‘xtaxo‘jayev, I.Ibrohimov, H.Xoniy, Z.K.Nasritdinov, M.G.Dadamuhammedov va A.Musabekovlarni otuvga hukm etish haqidagi qarori 1931-yil 3-iyunda ijro etilgan. Ammo Munavvarqori, S.Tillaxonov, G‘.Ikromov, M.Karimov, T.Musaboyev, T.X.Maqsudov, N.Shorahmedov va S.Ahroriyga nisbatan hukm ijro etilgani haqida ma'lumot yo‘q. Biroq kundalik matbuot vositalaridan olingan axborotga ko‘ra, 1930–1940-yillarda otilib, Moskvadagi Vagankovo qabristoniga yashirincha ko‘milgan odamlar ro‘yxati e'lon qilinadi. Gazetaning 1992-yil 25-maydagi sonida otilgan to‘qqiz kishining ro‘yxatida S.Ahroriy, Munavvarqori, S.Tillaxonov, T.Maqsudov, N.Shorahmedovlar [11. B. 85–87] bo‘lgan. Hay'atning 1932-yil 14-yanvardagi qarori bilan K.Qosimov va T.Oxunjonovlar Sibir o‘lkasiga uch yillik surgunga jo‘natilgan. 26-maydagi qarorga ko‘ra, P.Hojiboyev, 1933-yil 20-yanvarida esa I.Obiddinov shimoliy o‘lkaga uch yilga badarg‘a qilingan. 22 fevralda M.Abdullaxo‘jayev SSSRning 12 ta belgilangan shaharida yashash huquqisiz qamoqdan ozod qilingan.

1933-yil 10-martda Abdulla Rahmatzodani qamoqdan ozod qilish va shimolga uch yilga badarg‘a qilishga hukm chiqarilgan, 31-martda I.Islomov va N.Akromovlar qamoqdan ozod qilinib, O‘rta Osiyo, Qozog‘iston va unga chegaradosh rayonlarda uch yil muddatga yashash huquqidan mahrum etilgan. 1933-yil 10-mayda O.Hakimov Shimoliy o‘lkaga uch yil muddatga badarg‘a qilingan, biroq bu hukm 4 avgustda bekor bo‘lgan. 1933-yil 25-mayda A.Madalimov, 4-iyunda H.Salohiddinov, 9-iyulda U.Sulaymonov, 22-avgustda I.K.Otaboyev, A.Karamanovlar shartli ravishda qamoqdan ozod qilinganlar. 1934-yil 25-mayda U.Xo‘jayevga berilgan 10 yillik qamoq jazosi 7 yilga o‘zgartirilgan. 1936-yil 27-mayda O.Yoqubov ozod qilingan [8. B. 135–148].

Qamoqdan ozod qilingan yoki jazo muddatlarini o‘tab qaytgan tashkilot a'zolari qatag‘onning eng yuqori bosqichiga ko‘tarilgan 1937–1938-yillardagi “katta terror” kampaniyasi davrida qaytadan qatag‘on domiga tortildilar [13. B. 413–437]. Ularning aksariyati mol-mulki musodara qilingan holda oliy jazo – otuvga, ayrimlari esa 10 yoki 8 yillik qamoq jazolariga hukm etilgan. Shunday qilib, sovet hokimiyati o‘ziga qarshi kurashgan tashkilotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilgan qatag‘onlar davrida tag-tugi bilan yo‘qotib bordi.

Shunday qilib, XX asrning 20–30-yillarida istiqlol, milliy ozodlik uchun kurash olib borgan milliy siyosiy muxolifatda bo‘lgan “Milliy ittihod” yoki keyinroq “Milliy istiqlol” tashkiloti nomi ostida faoliyat olib borgan ushbu muxolifat tashkiloti a'zolari ham juda og‘ir sharoitda faoliyat ko‘rsatdilar. Chunki O‘rta Osiyo respublikalarini o‘zining temir panjalari ostida saqlashni bosh maqsad qilib qo‘ygan sovet hokimiyati milliy siyosiy muxolifatning erkin faoliyatiga yo‘l bermas edi. Ularga qarshi tazyiq va ta'qiblar sovetlar tomonidan doimiy suratda kuchaytirilib borildi. Shunday bo‘lsa-da, milliy istiqlol, erk va ozodlik fidoyilari bor kuch va imkoniyatlarini ishga solib, sovet tuzumiga qarshi kurash olib bordilar. Biroq ular ozodlik uchun kurashda qatag‘on qurbonlariga aylandilar.

Xulosa qilib aytganda, sovet hokimiyati o‘zining hukumronligini ancha mustahkamlab olgach, XX asrning 20–30-yillarida milliy ozodlik, istiqlol uchun kurashgan “Milliy ittihod” yoki “Milliy istiqlol” tashkiloti vakillarini ham O‘zbekistondagi boshqa muxolifatdagi jamiyat va tashkilotlar a'zolari qatori “aksilinqilobchi”, “o‘nglar”, “so‘llar”, “millatchi”, “panturk”, “panislom” tamg‘alari ostida badnom qilib, o‘z qatag‘on siyosatining qurboniga aylantirdilar.

1957-yil 5-sentyabrdagi O‘zbekiston SSR Oliy sudi jinoiy ishlar sud kollegiyasining ajrimiga ko‘ra, OGPU ning 1931-yil 25-apreldagi 85 nafar “Milliy istiqlol”chilar ustidan chiqargan hukmi bekor qilindi, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy istiqlol tufayli ularning tabarruk nomlari oqlandi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917–1939 йиллар. /Масъул муҳаррирлар: Р.М.Абдуллаев, М.А.Раҳимов, Қ.К.Ражабов. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – 559 б.

2. *Shamsutdinov R., Karimov Sh*. Vatan tarixi (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). Uchinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2016. – 446 б.

3. *Абдурашидхонов М*. Танланган асарлар. / Таҳрир ҳайъати: О.Шарофиддинов ва бошқ. – Тошкент: Маънавият, 2003. – 304 б.

4. Ўзбекистон Миллий архиви, Р-344-фонд, 1-рўйхат, 215-иш.

5. *Аҳмад Закий Валидий Тўғон*. Хотиралар. // Шарқ юлдузи, 1993. – № 7–8. – Б. 43–46.

6. *Шамсутдинов Р*. Истиқлол йўлида шаҳид кетганлар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 413 б.

7. *Шамсутдинов Р., Каримов Ш*. Ўзбекистон тарихидан материалллар. Учини китоб. – Андижон: Andijon, 2004. – 651 б.

8. *Хошимов С.* Совет ҳокимиятининг Ўзбекистондаги қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 256 б.

9. *Шамсутдинов Р.* Қисмат. Тарихий очерк //Андижоннома, 2003 йил 5,8 ноябрь.

10. Россия ижтимоий-сиёсий тарихи давлат архиви (РИСТДА – РГАСПИ, бундан кейин – РИСТДА), 62-фонд, 2-рўйхат, 310-иш.

11. РИСТДА, 62-фонд, 2-рўйхат, 194-иш.

12. *Убайдуллаев Ў.Қ.* Ўзбекистонда 20–30-йилларда мустабид тузумга қарши миллий мухолифот ҳаракати (маҳаллий зиёлилар фаолияти мисолида): Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент, 2004. –154 б.

13. Репрессия 1937–1938 гг. Документы и материалы. Выпуск 3. Жертвы Большого террора из Узбекистана, 1937 год, ноябрь / Составители: Р.Т.Шамсутдинов, Э.Ю.Юсупов, А.Мамажонов, Э.П.Дустматов. – Ташкент: Шарқ, 2007. – 358 с.

ACTIVITY OF THE «MILLIY ISTIKLOL» ORGANIZATION AND ITS DEPARTMENTS IN THE PROVINCES

Soibjon A.Khoshimov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 3(79).13-19.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *Jadid, educator, politics, ideology, "Milliy Ittikhod", "Milliy Istiqlol", organizations, opposition.*

The article, based on primary sources, describes the history of the creation of the organization "Milliy Ittikhod" or "Milliy Istiklol", created by modern educators, its branches in different regions, as well as the activities of their members. In 1917, the events of October and the seizure of power by the Bolsheviks in Turkestan did not allow the Jadids to fully realize their goals. Nevertheless, they declared an independent autonomous republic called Turkestan Autonomy with its center in Kokand. This autonomous republic, which lived for 72 days, was crushed by the Soviet authorities in February 1918.

As a result, the forces in the opposition, that is, the national progressive intellectuals (Jadids), were forced to switch to new methods of struggle. Now it was more important for the intellectuals of Turkestan not to build any kind of state, but to get rid of the new form of colonialism. In such a situation, the question of remaining free was of decisive importance, rather than the form of the state. In this case, it was natural that the intellectuals of Turkestan were divided into different directions according to their political and social views under the conditions of the established new regime. In such conditions, three directions appeared in the activity of Jadids. Birlik association was founded in January 1919 to encourage young people to join the ranks of the Communist Party. "The purpose of the unification was to attract young people to the Bolshevik faction and to prepare them for various unexpected events" writes Munavvar Qori Abdurashidkhonov. Andizhan branch of the organization was headed by Hasan Khan Niazi. In 1929, the activities of the "Milliy istiklol" organization were also exposed as efforts of the OGPU. A total of 87 people were arrested, investigated in Tashkent and Moscow prisons, and on April 25, 1931, the members of the organization were sentenced. The collegium sentenced 21 accused in the "Milliy Istiklol" case (of which 6 were sentenced to 10 years in prison), 26 were sentenced to 10 years, 20 to 5 years, 15 to 3 years to concentration camps, 4 to 12 specified cities of the USSR a verdict is issued that he will be released from prison with deprivation of life, only the spy of the political administration, Madhuddin Muhammedov, is released.

Thus, in 1917-1936, the members of the "Milliy istiklol" organization, which was in the national political opposition that fought for independence and national liberation, worked in very difficult conditions. Because the Soviet government, whose main goal was to keep the Central Asian republics under its iron paws, did not allow the free activity of the national political opposition. The pressure and persecution against them was constantly intensified by the Soviets. Nevertheless, the devotees of national independence, liberty and freedom used all their strength and capabilities to fight against the Soviet regime. However, they became victims of repression in the struggle for freedom.

References:

1. Abdullaev, R.M., Rahimov, M.A., Rajabov, Q.K. (ed.) (2019) *O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar).* [History of Uzbekistan (1917-1991).The first book. 1917-1939 years]. Tashkent: O‘zbekiston.

2. Shamsutdinov, R., Karimov, Sh (2016). *Vatan tarixi* (*O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida*) [History of the Motherland (Uzbekistan during Soviet colonialism)]. The third book. Tashkent: Sharq.

3. Abdurashidxonov, M. (2003) *Tanlangan asarlar* [Selected works]. Tashkent: Manaviyat.

4.O‘zbekiston Milliy arxivi [National Archive of Uzbekistan]. Fund R-344, List 1, Work 215.

5. Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on. (1993) Xotiralar [Memories]. *Sharq yulduzi*. No. 7-8. Pp. 43-46.

6. Shamsutdinov, R (2001). *Istiqlol yo‘lida shahid ketganlar* [Those who died on the path of independence]. Tashkent: Sharq.

7. Shamsutdinov, R., Karimov, Sh (2004). *O‘zbekiston tarixidan materiallar.*[Materials from the history of Uzbekistan]. The third book. Andijan: Andijon.

8. Xoshimov, S (2018). *Sovet hokimiyatining O‘zbekistondagi qatag‘on siyosati va uning oqibatlari* [Repressive policy of the Soviet government in Uzbekistan and its consequences]. Tashkent: Akademnashr.

9. Shamsutdinov, R (2003) *Qismat. Tarixiy ocherk* [Fate. Historical essay]. *Andijonnoma*. November 5-, 8.

10. *Rossiya ijtimoiy-siyosiy tarixi davlat arxivi (RISTDA*) [State archive of social and political history of Russia]. Fund - 62, List - 2. Work - 310.

11. RISTDA. Fund - 62, List - 2. Work - 194.

12. Ubaydullayev, O‘.Q (2004) *O‘zbekistonda 20–30-yillarda mustabid tuzumga qarshi milliy muxolifot harakati (mahalliy ziyolilar faoliyati misolida)* [The national opposition movement against the authoritarian regime in Uzbekistan in the 1920s and 1930s (as an example of the activities of local intellectuals)]. The Dissertation for the Candidate of Historical Sciences. Tashkent.

13. Shamsutdinov, R.T., Yusupov, E.Yu. (et.al.) (2007) *Repressiya 1937–1938 gg. Dokumenty i materialy. Vypusk 3. Zhertvy Bol’shego terrora iz Uzbekistana 1937 god, noyabr’* [Repression 1937–1938 Documents and materials. Issue 3. Victims of the Great Terror from Uzbekistan 1937, November]. Tashkent: Sharq.

Muallif haqida ma’lumot:

XOSHIMOV Soibjon Abdurazzaqovich – tarix fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi mudiri. E-mail: xoshimovsoibjon40@gmail.com